



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
SURXONDARYO VILOYATI HOKIMINING
QARORI**

Termiz shahri, At-Termiziy ko'chasi 1-uy. 190100, tel.: (+99876) 224-00-15, surxon@exat.uz, gov@sdv.uz

2021 - yil 30 - avgust

131-8-0-Q/21

Surxondaryo viloyati hokimligi

Angor tumani “Kattaqum” mahallasi xududidan Davlat aktivlarini boshqarish agentligiga quvvati 1500-1600 MVt bo‘lgan bug‘-gaz elektr stansiyasi qurilishi uchun yer maydoni ajratish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Yer kodeksi”ning 5-moddasiga va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 24 iyuldagи Surxondaryo viloyatida quvvati 1500-1600 MVt bo‘lgan bug‘-gaz elektr stansiyasi qurilishini tashkil etish bo‘yicha chora-tadbirlari to‘g‘risidagi PQ-5193-son qarorining 9-bandiga asosan, viloyat hokimligi huzuridagi yer uchastkalari berish (realizatsiya qilish) masalalarini ko‘rib chiquvchi komissiyaning 2021 yil 26 avgustdagи 03-02/510-son yig‘ilish bayoni, Angor tumani hokimining 2021 yil 28 iyuldagи 133/01-19-son xatini inobatga olib,

QAROR QILAMAN:

1. Angor tumani “Kattaqum” mahallasi xududidan Davlat aktivlarini boshqarish agentligiga tuman xokimligi zaxirasidagi 240, 239q, 244q-dala konturlardagi jami 73,0 hektar qishloq xo‘jaligida foydalanilmaydigan yer maydoni quvvati 1500-1600 MVt bo‘lgan bug‘-gaz elektr stansiyasi qurilishi uchun doimiy foydalanish huquqi bilan ajratilsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligi Surxondaryo viloyat boshqarmasi (M.Abduraxmanov)ga ajratib berilgan yer maydonidan samarali va maqsadli foydalanilishini doimiy nazorat qilib borish, yer uchastkasini uzoq muddatli ijaraga olish shartnomasiga hamda yer hisobotiga tegishli o‘zgartirish kiritish yuklatilsin.

3. O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Davlat kadastrlari palasasi Surxondaryo viloyat boshqarmasi (S.Shaymardanov) yer uchastkasi chegaralarini joyida (naturada) belgilashni amalga oshirsin hamda yer uchastkasiga bo‘lgan huquqni davlat ro‘yxatidan o‘tkazilishini ta’minlasin.

4. Viloyat qurilish bosh boshqarmasi (K.Eshmatov) qonunchilikda belgilangan tartibda qurilish ishlarini loyiha-smeta hujjatlariga muvofiqligini monitoring qilib borsin.

5. Mazkur qaror bir kun muddatda viloyat hokimligining rasmiy veb-saytida (surxondaryo.uz) e'lon qilinsin.

6. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish viloyat hokimining o'rribbosari A.Xidirov zimmasiga yuklansin.

Surxondaryo viloyati hokimi



Bobolov T.A.